

## IMKONIYATI CHEKLANGANLAR TA'LIM SISTEMASIDA MA'NAVIY TARG'IBOT MASALASI

Qudratilloev Shoxro'z Kamolovich  
Sharof Rashidov nomidagi  
SamDU tayanch doktoranti  
TEL: +998 97 553 95 55

**Annotatsiya:** Bugungi kunda nafaqat sog'lom yoshlar orasida, balki, imkoniyati cheklanganlar ta'lim sistemasida ham ma'naviy targ'ibot olib borish muhim ahamiyatga egadir. Vaholanki, ma'naviy targ'ibot imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchining, nafaqat ma'nan yuksalishiga, balki, uning hayotga nisbatan yashovchanlik, muhabbat tuyg'usini shakllantirishga, qalban poklanishga, har qanday holatda ham kurashuvchanlikka, o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda faqat rivojlanish sari borishga undaydi.

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklanganlik, ijtimoiy himoya, ta'lim sistemasi, ma'naviy targ'ibot

Inson dunyoga kelar ekan, uning jismoniy yoki, ruhiy-ma'naviy salomatligi, juda muhim mezon hisoblanadi. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, hayot davomida har bir dunyoga kelgan farzand ham to'liq barkamollik xususiyati orqali tug'ilmasligi mumkin. Bu hayot haqiqatidir. Zero jismoniy yoxud ruhiy salomatlik holatidan qat'iy-nazar har bir inson hayoti eng oliy qadriyat sanaladi. Ayniqsa, bugungi kunda kelib imkoniyati cheklanganlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, sog'lom insonlarga yaratilayotgan barcha imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishlari uchun butun jahon miqyosida keng e'tibor qaratilmoqda. Vaholanki, butun dunyo qonunchiligida har bir insonning hayoti daxlsizligi, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquq va erkinliklari qan'iy qilib belgilab qo'yilgan. Insondagi nogironlik, tug'ma yoxud orttirilgan bo'lishidan qat'iy-nazar jamiyat a'zolari orasida o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Imkoniyati cheklanganlarning jamiyatda to'la-to'kis hayot kechirib, bor imkoniyatlardan oqilona foydalana olishlari, o'z imkoniyat va qobiliyatlarini erkin namoyon etishlari uchun oila, atrof-muhit, jamiyat, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati juda muhim sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda bugungi kunda imkoniyati cheklanganlar ta'lim tizimi hamda bu tizimda olib borilishi lozim bo'lgan ma'naviy targ'ibot masalasini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har bir inson dunyoga kelishi bilan, unga berilgan har bir imkoniyatdan to'la-to'kis foydalana olishga haqlidir. Imkoniyati cheklanganlik ta'lim va tarbiya olish jarayoniga, moddiy va intellektual mulklardan foydalanishga, shuningdek, nafaqat jismoniy, balki, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik yuksalishga chegara o'rnatmasligi lozim. Zero, "Shaxs u yoki bu xildagi hayot tarzini tanlash

imkoniga ega bo'lgan ongli va faol insondir. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning shaxsiy va psixologik sifatlarini o'rganishga katta e'tibor beriladi, chunki bunday ma'lumotlarni bilish va shaxslararo munosabatlarda hisobga olish juda muhimdir. Inson shaxsi jamiyatning a'zosi sifatida turli xil o'zaro munosabatlar doirasida faoliyat yuritadi. Shaxsning shakllanish jarayoniga shaxslararo munosabatlardan tashqari jamiyatdagi mavjud siyosiy doiralar va mafkuraviy qarashlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mafkuraviy qarashlar jamiyatdagi ma'lum bir g'oyalar tizimi sifatida shaxsga ta'sir ko'rsatib, uning psixologiyasi, dunyoqarashi, shaxsiy va ijtimoiy ustanovkalarining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi" [4; 5]. Demak, mafkuraviy qarashlar, g'oyalar sistemasi qanday tartibda singdirilishi kerak?, degan savol kelib chiqishi tabiiydir. Har qanday bunyodkor fikr, qarash, g'oya va mafkura, albatta, ta'lim va tarbiya jarayoni orqali, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mazkur jarayondagi samarali ma'naviy targ'ibot olib borish asosida shakllantiriladi.

Bugungi kunda nafaqat sog'lom yoshlar orasida, balki, imkoniyati cheklanganlar ta'lim sistemasida ham ma'naviy targ'ibot olib borish muhim ahamiyatga egadir. Vaholanki, ma'naviy targ'ibot imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchining, nafaqat ma'nun yuksalishiga, balki, uning hayotga nisbatan yashovchanlik, muhabbat tuyg'usini shakllantirishga, qalban poklanishga, har qanday holatda ham kurashuvchanlikka, o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda faqat rivojlanish sari borishga undaydi. Ammo, bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan yoshlarning ta'lim bilan qamrab olinishidan tortib, ular ta'lim olayotgan muassasalardagi shart-sharoit, ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va o'quv adabiyotlari, shu jumladan, ular orasida samarali ma'naviy targ'ibot olib borish mexanizmini shakllantirish borasigacha yechimini kutayotgan muammolar mavjuddir. Bu muammolarni bartaraf etish, yechimlarini topish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek, samarali chora-tadbirlar mexanizmini shakllantirish har qachongidan muhim bo'lib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, bu borada inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ya'ni kishining imkoniyati cheklanganlik darajasidan qat'iy-nazar ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarga egaligini ta'minlash masalasi ham juda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ma'naviy targ'ibot olib borish bevosita goyaviy va mafkuraviy tarbiya orqali amalga oshiriladi. "Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik, huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga egadir. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq" [5; 17]. Eng muhimi shundaki, imkoniyati cheklangan yoshlarning qalbi va ongi, ruhiy holati uchun mafkuraviy,

ma'naviy ozuqa juda zarur. Ularning bu boradagi ehtiyoji boshqa insonlarga nisbatan yuqoriroqdir. Vaholanki, imkoniyati cheklanganlar ruhiy holati doimiy ma'naviy ko'makka muhtoj. Bu ko'mak esa asosan oila va ta'lim muasasasi orqali ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Bu borada ma'naviy targ'ibot olib boruvchilarning psixologik holati, pedagogik mahorati, kreativlik jigatlari, malakalilik va tajribalilik darajasi muhim hisoblanadi. Zero o'zi psixologik va ma'naviy-axloqiy ko'makka ehtiyoji bor inson ma'naviy targ'ibot olib borish imkoniyati yetarli bo'lmaydi. Shu boisdan han bu borada juda ehtiyotkorona yondashuv zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko'ra: Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi [1]. Demak, mamlakatimiz bosh qonunida ham imkoniyati cheklanganlar masalasining yoritilishi, ularning hamisha e'tiborda ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, qonunchiligimizga binoan imkoniyati cheklangan yoshlar barcha insonlar singari madaniy hordiq olishi, sport bilan shug'ullanishi, teng imkoniyatlarga ega bo'lgan ta'lim dargohlarida tahsil olishi, qulay mehnat sharoitlarida ishlashi ta'minlanadi.

### **Xulosa:**

**Birinchidan,** imkoniyati cheklanganlar ta'lim va tarbiya muammosi juda muhim masalardan biri hisoblanib, mazkur muammoni bugungi zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda pedagogik-psixologik, falsafiy-konseptual tadqiqotlar doirasida tahlil etish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

**Ikkinchidan,** imkoniyati cheklanganlar ta'lim tizimida samarali ma'naviy targ'ibot olib borilishi, ularning falsafiy tafakkur tarzini shakllanishiga, ma'naviy-ruhiy yuksalishiga, shuningdek, hayotga nisbatan konstruktiv yondashuviga yo'naltiruvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.30.04
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoni.

3. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta`lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 2-iyundagi 417-son qarori.
4. Ismoilova N. Ij'timoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
5. Ergasheva M.X. Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili: o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2021.